

HUNARMANDCHILIK MEROSINI ASRASH VA RIVOJLANTIRISHDA YOSHLARNING INNOVATSION TASHABBUSLARI

Mahmudjonov Javoxir Abduvoxidjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
javoxirmahmudjonov1007@gmail.com
+9998996901007

Annotatsiya: Maqolada hunarmandchilik merosini asrash va rivojlantirishda yoshlarning ijtimoiy faolligi, innovatsion tashabbuslari hamda zamonaviy yondashuvlarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik merosi, yoshlar faolligi, innovatsion tashabbuslar, an‘anaviy kasblar, madaniy meros, raqamlashtirish, ijtimoiy faollik, kreativ iqtisodiyot, ustoz–shogird an‘anasi, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируются социальная активность молодежи, ее инновационные инициативы и современные подходы в сохранении и развитии ремесленного наследия, а также их социально-философское значение.

Ключевые слова: ремесленное наследие, активность молодежи, инновационные инициативы, традиционные ремесла, культурное наследие, цифровизация, социальная активность, креативная экономика, традиция «мастер–ученик», устойчивое развитие.

Annotation: The article analyzes youth social activity, innovative initiatives, and modern approaches to preserving and developing handicraft heritage, emphasizing their socio-philosophical significance.

Keywords: handicraft heritage, youth activity, innovative initiatives, traditional crafts, cultural heritage, digitalization, social activity, creative economy, master–apprentice tradition, sustainable development.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida: *“Milliy hunarmandchiligimiz – bu xalqimizning tarixiy xotirasi, madaniy o‘zligi va kelajak avlodlar uchun bebaho merosdir”*[8.7], deb ta’kidlagan. Mazkur fikr hunarmandchilikni asrash va uni zamonaviy sharoitda rivojlantirishda yoshlarning faol ishtirokini taqozo etadi. Bugungi globallashuv davrida an‘anaviy hunarlarni innovatsion yondashuvlar orqali saqlab qolish dolzarb ijtimoiy-falsafiy masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism. Hunarmandchilik merosini asrash va rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy ahamiyat kasb etayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, globallashuv, texnologik taraqqiyot va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida an‘anaviy hunarlarning saqlanib qolishi ko‘p jihatdan yoshlarning faolligi va innovatsion tashabbuslariga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning

hunarmandchilik sohasidagi ishtiroki jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023–2024-yillarda O‘zbekistonda hunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi subyektlar soni 50 mingdan oshgan bo‘lib, ularning qariyb 35–40 foizini 18–30 yoshdagi yoshlar tashkil etadi [1.56]. Bu ko‘rsatkich so‘nggi besh yil ichida izchil o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, kulolchilik, zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik va milliy liboslar tayyorlash kabi yo‘nalishlarda yoshlarning ulushi sezilarli darajada ortgan. Buning asosiy sababi sifatida davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional sharoitlar, imtiyozlar va grant dasturlarini ko‘rsatish mumkin.

Yoshlarning innovatsion tashabbuslari, avvalo, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish usullarida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy ustaxona faoliyati bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, onlayn savdo, elektron kataloglar va ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing qilish shakllarini o‘z ichiga olmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, hunarmandchilik mahsulotlarini onlayn platformalar orqali sotayotgan yosh tadbirkorlarning daromadi an’anaviy savdoga nisbatan o‘rtacha 1,5–2 baravar yuqori bo‘lmoqda [2.41]. Misol uchun Rishtonlik yosh kulollar tomonidan milliy kulolchilik mahsulotlari Instagram, Telegram va Etsy kabi onlayn platformalar orqali sotila boshlagach, daromad sezilarli oshgan. An’anaviy bozorlarda bir dona kulolchilik buyumi o‘rtacha 80–100 ming so‘mga sotilgan bo‘lsa, onlayn savdoda ushbu mahsulotlar dizayn va brending hisobiga 150–200 ming so‘mgacha realizatsiya qilinmoqda. Natijada yosh hunarmandlarning oylik daromadi an’anaviy savdoga nisbatan 1,5–2 baravar oshgan. Bu holat yoshlarning innovatsion tafakkuri va bozor mexanizmlariga tez moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaranganda, hunarmandchilik yoshlar uchun faqat daromad manbai emas, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va madaniy identifikatsiyani mustahkamlash vositasi hisoblanadi. Hunar orqali yoshlar ajdodlar tajribasini o‘zlashtiradi, mehnat madaniyatini anglaydi va jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Bu jarayonda ustoz–shogird an’anasining zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, so‘nggi yillarda hunarmandchilik maktablari va o‘quv markazlarida dual ta’lim elementlarining joriy etilishi yoshlarning nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikmalarni ham egallashiga xizmat qilmoqda [3.88].

Hunarmandchilik merosini rivojlantirishda yoshlarning innovatsion tashabbuslari dizayn va mahsulot sifati borasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. An’anaviy shakl va bezaklar zamonaviy estetik talablar bilan uyg‘unlashtirilib, eksportbop mahsulotlar yaratilmoqda. Statistik tahlillarga ko‘ra, hunarmandchilik mahsulotlari eksporti 2020–2024-yillar oralig‘ida qariyb 30 foizga oshgan bo‘lib, bu

o‘shida yoshlar boshchiligidagi kichik biznes subyektlarining hissasi katta [1.56]. Bu holat hunarmandchilikni kreativ iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yoshlarning tashabbuslari hunarmandchilikni turizm bilan integratsiyalash jarayonida ham muhim rol o‘ynamoqda. Hunarmandchilik festivallari, mahorat darslari, etnoturizm loyihalari yoshlar tomonidan faol tashkil etilmoqda. Bu esa nafaqat madaniy merosni targ‘ib qilish, balki hududiy rivojlanish va aholi bandligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, hunarmandchilikka asoslangan turizm yo‘nalishlari mahalliy aholining daromadini o‘rtacha 20–25 foizga oshirgan [2.41]. Xususan, Xiva shahridagi Ichan-Qal‘a hududida kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi va gilam to‘qish ustaxonalari turizm oqimi bilan bevosita bog‘langan. Har yili minglab xorijiy sayyohlar tashrif buyurishi natijasida hunarmandlar mahsulotlari tez sotiladi.

Aytish mumkinki, agar yoshlarning hunarmandchilik sohasidagi innovatsion faoliyati tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlansa, 2030-yilga borib ushbu sohada faoliyat yuritayotgan yoshlar ulushi 50 foizdan oshadi. Natijada hunarmandchilik nafaqat madaniy merosni asrash vositasi, balki barqaror iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy faollikni oshirish omiliga aylanadi. Bu esa jamiyat taraqqiyotida yoshlarning rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xuslosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, hunarmandchilik merosini asrash va rivojlantirishda yoshlarning innovatsion tashabbuslari muhim omil bo‘lib, u iqtisodiy o‘shish, bandlik va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va turizm bilan integratsiya ushbu sohaning barqaror rivojlanish istiqbollari kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Hunarmandchilik va kichik biznes faoliyati bo‘yicha yillik hisobotlar. – Toshkent, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2019–2024.
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy ma’naviyat va madaniy merosga oid nutqlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. UNESCO. Intangible Cultural Heritage: Traditional Crafts and Safeguarding Practices. – Paris, 2021.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. World Bank. Creative Industries and Youth Employment Report. – Washington D.C., 2023.

7. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi. Hunarmandchilikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash dasturlari hisobotlari. – Toshkent, 2023.
8. Mirziyoyev Sh.M. Hunarmandchilikning paydo bo‘lishi – sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 14.09.2019

YANGI O‘ZBEKISTONNING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Kodirov Barxayotjon Sobirjonovich

Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada klasterli yondashuv mohiyati va ularni amalga joriy etilishi innovatsion rivojlanishning muhim omili ekanligi falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, rivojlanish, klaster, inson kapitali, ta’lim, innovatsion rivojlanish.

Аннотация. В статье философски анализируется сущность кластерного подхода и его реализация как важного фактора инновационного развития.

Ключевые слова: инновации, развитие, кластер, селовесеский капитал, образование, инновационное развитие.

Abstract. The article philosophically analyzes the essence of the cluster approach and its implementation as an important factor in innovative development.

Keywords: innovation, development, cluster, human capital, education, innovative development.

XXI asrning boshlarida kashf qilingan va qo‘llanilgan innovatsiyalar ko‘pgina sohaning tub o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Jumladan, iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyotga o‘tishi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda klasterli yondashuvning qo‘llanilishi, sohalarning raqamlashtirilishi, ta’lim sohasidagi transformatsiyalar inson faoliyatlarida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush darajasining oshishi oqibatida fan-texnikadagi innovatsiyalar ommaviy tus olib millionlab kishilarni o‘ziga jalb qildi. Buni esa jamiyat, inson